



**Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini umummadaniy
kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari**

Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi

FarDU, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti

jurayevanilufar085@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kompetentligi, kompetensiya turlari, tarbiyachilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kompetentlik, maktabgacha ta'lim tashkiloti, sifatli ta'lim, nazariy tahlil, pedagogik an'ana, ta'lim tizimi, ilg'or ish tajribasi.

Аннотация: В статье рассматривается компетентность педагогов дошкольных образовательных организаций, виды компетентности, технологии развития общекультурной компетентности воспитателей.

Ключевые слова: Компетентность, компетентность, организация дошкольного образования, качество образования, теоретический анализ, педагогическая традиция, система образования, передовой опыт работы.

Abstract: This article discusses the competence of teachers of preschool educational organizations, types of competence, technologies for developing general cultural competence of educators.



Key words: Competence, competence, preschool education organization, quality education, theoretical analysis, pedagogical tradition, educational system, advanced work experience.

Kirish: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim sohasi ham dunyoda eng ilg'orlardan biri bo'lib qolishiga Respublika rahbariyati va hukumati tomonidan hamma shart-sharoit yaratilmoqda. Bizning ta'lim tizmlarimiz ham jahonda e'tirof etilgan ta'lim tizimlaridan biridir. Shu tufayli ham Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Malayziya, Finlandiya Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlar ta'limining vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar va muloqotlarda Respublikamiz ta'limi tizimiga yo'qori baho berildi. Shuni ta'kidlash lozimki, Respublikamiz Maktabgacha ta'limi hodimlari oldida hozirgi kunda turgan eng muhim vazifa - mustaqil O'zbekistonning hozirgi ta'lim tizimlarini istiqbol ruhi bilan takomillashtirish, uni o'zimizning mumtoz pedagogik an'analari bilan boyitish, xorij pedagogikasidagi ilg'or jihatlarni o'zlashtirish, yangi - yangi samarali o'quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan jahon davlat standartlari darajasiga olib chiqishdir. Buning uchun esa bizning iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlardagi quyidagi ilg'or tajribalarni ta'lim tizimimizda qo'llay bilishimiz maqsadga muvofiqdir. Ilg'or ish tajribalarining natijalaridan maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda har tomonlama rivojlantirishda, ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotga keng joriy etishda, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashda, o'quv - texnologiyaik majmualar tayyorlashda, texnologiyaik tavsiyalardan tarbiyachilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlarida ma'ruzalar sifatida foydalanish mumkin.

Asosiy qism: Hozirgi kunga kelib mamalakatimizda va xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'lim yo'nalaishidagi olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini boshqarish va nazorat qilish, uzluksiz ta'lim tizmini to'la



boshqarish tizmlarini boshqarish, tizmlarini shakllantirish hamda tadbqiq qilish davlat ta'lim siyosati qilib belgilanib kelinmoqda. Ta'lim sifatining birinchi o'rindaligi, ta'lim tizmidan olib borilayotgan siyosatining yadrosi sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlab, ta'lim tizmining barcha bosqichlarida boshqaruvning foydali mexanizmlarini yaratish muammosini nihoyatda dolzarb bo'lib kelmoqda. Bunda maktabgacha ta'lim tizmining o'rnini o'zgacha bo'lib, sifat darajasini ko'tarish, salohiyatini oshirish boshqa sohalar kabi ko'plab yutuqlarga erishish lozim bo'ladi. Shu nuqtai nazardan insonning har tomonlama rivojlanishida yordam beruvchi g'oyalar deganda (B.S.Gershunskiy, E.N. Gusinskiy, B.T. Lixachev, E. Sh. Qurbonov, E.A. Seytxalilov, A.I. Subetto va boshqalar) foydalaniladi. Shu jihatdan ta'limni sifati bo'lg'usi zamonaning muhim ijtimoiy jarayonlari dinamikasini, shu jumladan, shaxs rivojlanishi ustivorligiga sabab bo'luvchi zarurat (E. Sh. Qurbonov, E.A. Seytxalilov) jamiyatning barqaror rivojlanishi modeliga o'tish jarayonini ta'minlashga qodir insonni shakllantirishni yuzaga keltiruvchi hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Talim sifati va uni nazorat qilish, uzluksiz ta'lim tizmini to'la boshqarish tizmlarini boshqarish, tizmlarini shakllantirish hamda tadbqiq qilish – davlat ta'limi siyosati ekanligini unutmasligimiz lozim. Maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida ta'lim sifati va samaradorligini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning bazaviy komponentlarining o'ziga singdirish jiddiy nazariy eksperimental tadqiqotlarga muhtoj bo'lib kelmoqda. Nazariy tahlillar olib borilganda shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifati masalasi zamonaviy pedagogika sohasida kam ishlab chiqilgan masalalardan biri ekanligi barchamizga ma'lumdir. Bizga ma'lum adabiyotlarda keltirilishicha,(masalan, L.I. Falyushinov) ularda mazkur muammoni maktabgacha ta'lim tashkiloti hodimlarining ish vaqtidan oqilona foydalanib va pedagog kadrlar bilan texnologiyaik ishlarni tashkil qilish vositasida hal qilishga harakat qilinarkan. Afsuski, sifatli ta'limni ta'minlashning belgilangan jihatlari uni yechish imkonini bermasligi tufayli ushbu muammoni kompleks tahlil qilishga imkon bermaydi. Jamiyat va fan madaniyatining rivojlanishi ta'lim tarbiya ishlarining qay yo'sinda olib borilishiga katta e'tibor berish



lozim. Davlatning buyuk kelajagi, albatta yoshlarni chuqur bilimli va barkamol shaxs taqdiri bilan bog'liqligini unutmagan holda ushbu muammoni mahoratli bilimli pedagoglar faoliyatiga 22tayanib yechish mumkunligini unutmasligimiz lozim. Jumladan Surxandaryo viloyatida jami 5349 ta pedagog xodimlar ishlab kelmoqdalar shundan oliy ma'lumotli mutaxassislar 1799 ta , tugallanmagan oliy mutaxassislar soni 479 ta hamda o'rta maxsus mutaxassislar soni 3071 tani tashkil etmoqda. Maktabgacha ta'lim boshqarmalari tomonidan sohaning yetuk va mahoratli mutaxassislarini aniqlash ularning ish faoliyatlarini ommalashtirish ular ishtirokida mahorat darslarini tashkil etish ustoz –shogird tizimida ishlarning olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim imkoniyatlardan foydalanib yosh mutaxassislarinig pedagogik–psixalogik kompetensiyasini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun tarbiyachilarimiz yetarli darajada bilimga, amaliy ko'nikmalarga, pedagogik-psixologik bilimdonlikga, layoqatga ega bo'lishlari lozim. “Kompetensiya”, “kasbiy kompetentlik”, “loyihaviy faoliyat” haqidagi olimlarning nuqtai nazarlarining batafsil tahlili, kasbiy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari (A.K.Markovaga ko'ra) hamda loyihaviy faoliyat xususiyatlari va tuzilishini aniqlagandan keyin o'z ishimizda yana bir, fikrimizcha, kasbiy kompetentlikning muhim bo'lgan tarkibiy qismi – loyihaviy kompetensiyani aniqlash va izohlab berishga urindik. Loyihaviy kompetentlik, birinchidan, kasb ta'limi va zamonaviy pedagogning raqobatdoshligini ta'minlash masalalarini hal etishda muhim o'rin tutadi, sababi tahsil oluvchilar ta'limi sifatini oshiruvchi pedagogik loyihalarni ta'lim jaraeniga tayèrlash va joriy etish uchun zaruriy bo'lgan bilim, qobiliyat va shaxs xislatlari yig'indisini bildiradi. Ikkinchidan, pedagogning loyihaviy kompetentligi loyihaviy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi pedagogik vazifalarni hal etish shartlarining o'zgarishlariga ko'ra o'zgaruvchan, dinamik, o'z vaqtida to'g'rilanadigan kompetensiyalar majmuasini bildiradi. Umumiy ko'rinishda u kasbiy amaliètda mavjud bo'lgan loyihaviy faoliyatning amalga oshirilishi tajribasini natijaviy qo'llash qobiliyati va tayèrligida ifodalanadi va umumiy kasbiy-pedagogik kompetentlikning qismi bo'lib hisoblanadi, uning shakllanishi bo'lajak mutaxassislar



tayërgarligining barcha asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Uchinchidan, loyihaviy kompetentlik – nostandart loyihaviy fikrlashning shakllanishi, innovatsion pedagogik strategiyalarning egallanishi yuqori darajasi va pedagogik faoliyat mazmuni, vositalari va metodlari, shartlari o‘zgarishiga moslashishga qaratilgan loyihaviy qobiliyatlar va kompetensiyalar majmuasini egallashning yuqori darajasidir.

Kompetensiya-sohaga oid bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar majmui, shaxsning qadriyati va sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo‘lishi yoki ta’sir ko‘rsatish qobiliyati. Kompetentlik-muayyan lavozimga mos o‘z kasbining mohir egasi bo‘lgan shaxsga xos sifat. Pedagogning kompetensiya turlari:

1. Kasbiy kompetensiya.
2. Shaxsiy kompetensiya.
3. Umummadaniy kompetensiya.
4. Maxsus kompetensiya.

So‘nggi yillardagi ta’lim-tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yangilashga e’tibor berish, maktabgacha ta’limga oid innovatsiyalarni izlash, uni ta’lim-tarbiya jarayoniga, tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kiritib borishda ta’lim tizimining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, pedagogik jarayonga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, innovatsiyalarni joriy etish, o‘qituvchi va tarbiyachilarni zamonaviy usullardan foydalanish, ko‘nikma va malakalari bilan qurollantirish ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalar zahirida amalga oshirilmoqda. Pedagogika yo‘nalishida tatbiq qilinishi lozim bo‘lgan muhim masala borki, u ham bo‘lsa tarbiyachilarning pedagogik jarayonni zamonaviy usullar asosida maqsadli, tizimli va natijalarni bashorat qila olish orqali metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishlarini ta’minlashdir. Interfaol usullar hozirgi kunda ta’lim islohotlaridagi ustuvor jihati va pedagogik muammolarni hal etishdagi roli, ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan ekanligini e’tirof etish joizdir. Pedagogik texnologiya nazariyasining muhim jihati har bir pedagogning o‘z imkoniyati darajasida,



shuningdek, turli yoshdagi ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'quv faolligini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalana olish bilan belgilanadi.

“Pedagog bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak”. Tarbiyachilarni interaktiv usullardan oqilona, maqsad va sharoitga muvofiq tarzda didaktik tamoyillarga asoslangan holda foydalanishga o'rgatish bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

MTT tarbiyachilari o'z faoliyatlariga zamonaviy usullarni maktabgacha ta'limga oid ilmiy maqolalar, risolalar, mahalliy ilg'or tajribalarni o'rganish orqali tatbiq etib kelmoqdalar. Ba'zan, interaktiv usullarning mohiyati va maqsadini to'liq anglamagan holda qo'llamoqdalar. Shuning uchun malaka oshirish jarayonining o'zida interaktiv o'quv muhiti yaratilib, tarbiyachilar uning bevosita ishtirokchisiga aylansalar, ya'ni har bir interfaol usulni bevosita o'zlaridan o'tkazib o'zlashtirsalar, ushbu usullarni maktabgacha ta'limga moslashtirib, amaliyotga tatbiq etishlari shunchalik oson va qulay kechadi. MTTda milliy va umummadaniy kompetensiyani o'stirish darajasi dolzarb masala sanaladi. Bugungi kunga kelib texnika-texnologiyalarning tezkorlik bilan rivojlanishi natijasida ta'lim-tarbiya sohasida ham axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish taqozo etilmoqda. Tadqiqotda MTT tarbiyachilarida umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida universal didaktik vosita sifatida kompyuter texnologiyasidan foydalanish ko'zda tutilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida metod va vositalarni to'g'ri tanlab, samarali foydalanish 90%gacha maqsadga erishishni kafolatlaydi. Umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishfa ham ta'lim-tarbiya vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi vositalardan unumli foydalanish ijobiy samara beradi.

Xulosa: Maktabgacha pedagogika tug'ilgandan to yetti yoshgacha bo'lgan bolalarga har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganadi va maktabgacha ta'lim tashkiloti



sharoitida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, uslub va vositalar hamda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan shart sharoitlarni ishlab chiqadi. U maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oila va maktab ishidagi izchillikni ta'minlaydi hamda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. file:///C:/Users/user/Pictures/Camera%20Roll/qo'llanma.pdf
2. Barkamol avlod orzusi. To'plam. / Tuzuvchilar Sh.Quronov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – T.: “Sharq”, 1999. -12-b
3. Asadov Y.N va boshq. O'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiya metodikalari//T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'PFITI 2016 –160 b (4-5-b)
4. Титова С.А Компетентностный подход в обучении: теоретические основы формирования общих компетенций у студентов системы среднего профессионального образования // Среднее профессиональное образование. – 2015. – No5.– С. 14-18.
5. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога // Педагогика, 2003. – №10. – 51 с.
6. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. Педагогические условия формирования познавательной активности младших школьников// Образование в современном обществе: Сборник научных трудов. – М.: МГПУ, 1998. – С. 59-65.
7. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2016. – 79 b.